

ko‘lamini ifodalagan leksema, rus va o‘zbek tillarining leksik tizimida mazmuniy hajmini kamaytiradi va shu doiraga oid faqat alohida tushunchalarni ifodalaydi.

Semantik tarkib torayishining namunasi sifatida rus va o‘zbek tillariga lotin tilidan qabul qilingan *abduksiya, aggravatsiya, botulizm, vena* kabi leksemalarni keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Basaranovich YE. Semanticheskaya aktivnost i funkcionirovaniye angliyskix zaimstvovaniy v sovremennom russkom yazike. <https://euroasia-science.ru/filologicheskie-nauki/>.

2. Velichko O.V. Anglo-fransuzskiy zaimstvovaniya v russkoy meditsinskoy terminologii: Avtor. diss. ... kand. filol. nauk. – Astraxan, 2010. – S. 14.

3. Axmedov O.S. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol. fanl. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2016. – B. 21.

4. Sayafi R.M. Farsizmi v bashkirskom yazike (fonemniy, semanticheskii, morfemno-strukturniy i morfologicheskii aspekti: Diss. ... kand. filol. nauk. – Ufa, 2020. – S.71.

5. Tan In. Angloyazichniye zaimstvovaniya v russkom i kitayskom yazikax: sotsiopsixolingvisticheskoye issledovaniye. Diss. ... kand. filol.nauk. – Perm, 2019. – S.35.

TIBBIYOT TERMINLARINING O‘ZLASHISH JARAYONI MURAKKAB HODISA SIFATIDA

Feruza AKBARXODJAYEVA
PhD, ToshpTI

Annotatsiya. Ma’lumki, terminologik leksika o‘zlashtirmalar borasida sezilarli o‘tkazuvchan qatlamdir. Bundan tashqari, o‘zlashmalar leksik birlikning etimologiyasi va uning boshqa xususiyatlari, ya’ni ifoda rejasi (morfologik tuzilishi) hamda mazmun rejasi (ko‘pma’ nolilik darajasi) bilan ham bevosita bog‘liq.

Kalit so‘zlar: o‘zlashmalar, termin, terminologiya, termin tizimi, lingvistika, tibbiyot, o‘zlashma, semantika, lotin tili.

Tilning ijtimoiy mohiyati haqidagi qarashlar hech kimda shubha uyg‘otmaydi, biroq tilning ijtimoiy o‘lchamlari muammosini tadqiq qilishga bag‘ishlangan zamonaviy ishlar esa ijtimoiy til munosabatlari va o‘zaro bog‘liqliklar borasidagi nazariy qoidalar

uchun mustahkam asos yaratdi. Tibbiyotga oid leksika tilning ilmiy tizimi ostida shakllangan maxsus va nomaxsus tibbiy terminlarni birlashtiradi. Shu bilan birga, tibbiy leksikaning asosiy qismini tibbiy terminologiya tashkil qiladi. Leksik birliklar majmui hisoblangan maxsus tibbiy leksikaning, avvalo, tibbiy terminlarning shakllanishi, ushbu bilim sohasining o'sish va rivojlanishda uning metatili hali shakllanishda davom etayotganligidan dalolat beradi⁹⁸.

Maxsus tibbiy leksika terminologik asoslarining o'rganilishi hozirgi kunda zamonaviy tibbiyotning har bir nazariy va amaliy bo'limining dolzarb ilmiy-metodik muammolaridan biri hisoblanadi.

Tibbiyotning termin tizimining tadqiq qilinayotgan segmentida rus va o'zbek tillarining o'z zaxiralaridan hosil bo'lgan hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar ajralib turadi. Tibbiyot terminologiyasida boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni, leksik qatlamning barcha sathlarida bo'lgani kabi, ushbu soha terminologiyasining taraqqiyotida ham nihoyatda ahamiyatlidir. Xususan, o'zbek va rus tibbiyot terminologiyasida o'zlashma terminlarning salmog'i yuqori bo'lib, bu terminlar asosan lotin va yunon tillaridan o'zlashgan hamda ko'plab boshqa tillarda ham faol qo'llanadi.

“O'zlashma so'zlarni o'zbek tili leksik sistemasidagi assotsiativ derivatsion munosabatlar jihatidan ko'rib chiqish, shuningdek, leksik birliklarni ularning yasalishi, so'z hosil qilish imkoniyatlari va sinonimlik xususiyatlari bilan taqqoslagan holda o'rganish zarur”⁹⁹.

Demak, o'zlashtirish – bu sof ko'rinishdagi o'zlashtirish hisoblanadi. Bu so'zning manba tilida qanday mavjud bo'lsa, shunday shaklda tilga ko'chirilishini nazarda tutadi. O'zgartiriladigan o'zlashma – so'zlarda affikslar bilan farq qilishi, fleksiya va boshqalar hisobiga o'zlashtirish sanaladi. Xorijiy tillardan so'zlarni o'zlashtirish jarayoni doimo dunyoning ko'plab tillarini boyitishning faol usullaridan biri bo'lib kelgan va qolmoqda.

⁹⁸ Сперанский В.С., Гончаров Н.И. Очерки истории анатомии: научное издание. – Волгоград: Издатель, 2012.– 216 с.; Wijnen-Meijer, Burdick W., Alofs L. et al. Stages and transitions in medical education around the world: clarifying structures and terminology // Med. Teach. – 2013. – Vol. 35, N 4. – P. 301-307.

⁹⁹ Данияров Б.Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нуткий муносабати, лексикографик тадқиқи. – Самарқанд, 2017. – Б. 18.

Tibbiyot tili ham bundan mustasno emas. Uning lug‘at tarkibi asosan boshqa tillardan (lotin, yunon) o‘zlashtirish hisobiga sezilarli darajada shakllangan.

A.A. Reformatskiy terminlar shakllanishining uchta usulini ajratib ko‘rsatadi: umumxalq tilining “o‘z” so‘zlarini terminlar sifatida qo‘llash; boshqa tillardan “begona” so‘zlarni o‘zlashtirish, yunon va lotin tillarining so‘z hamda termin elementlari shaklidagi qadimiy “egasiz” merosdan foydalanish¹⁰⁰.

Terminlarni o‘zlashtirish jarayonida ularning assimilyatsiyasi (o‘zlashtirilishi) bilan bog‘liq muqarrar muammolar yuzaga keladi, “qabul qiluvchi til meyorlariga muvofiq leksemaning fonetik, grafik, grammatik va leksik xususiyatlarini maksimal yaqinlashtiruvini”¹⁰¹ nazarda tutgan holda, biz tadqiqot ishimizning keyingi boblarida rus va o‘zbek tibbiyoti terminologiyasi tarkibidagi o‘zlashgan terminlar va termin birikmalarning qanday o‘zlashtirilganligini tahlil qilamiz.

Tibbiyot tilining diaxronik tadqiqi tibbiyot tilining turli bosqichlarida sodir bo‘lgan barcha jarayonlarni ochib beradi. Aksariyat terminlar turkiy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga lotin tilidan o‘zlashganini ta’kidlagan holda, F.I.Abdulxairova zamonaviy tibbiyot terminologiyasida arabcha leksik birliklar deyarli o‘z izini qoldirmaganligini faqat bir necha arabizmlar, asosan, dorivor mahsulotlar nomlarida kuzatilishini ta’kidlaydi va quyidagi misollarni keltirib o‘tadi: *kaliy* va *alkaloid*, arabcha “*al qali*” (o‘simlik kuli) so‘ziga oid bo‘lib, undan lotincha “*alkali*” (ishqor); *alkogol* – arabcha “*al-kohl*” (surmaning mayda kukuni); *eliksir*, arabcha “*al-iksir*” (faylasuf toshi); *bura* – arabcha “*buraq*” kabi¹⁰².

Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari”ga *nucha* – bo‘yinning orqa qismi, *albugineum* (oqsilli), *ileum* (qovurg‘a ortidagi ichak), *retina* (to‘r parda), *venacephalica* (bosh tomir), *vermiscerebelli* (kichikmiya qurti), *auriculacordis* (yurak qulog‘chasi), *orbita* (ko‘z chanog‘i), *duramater i piamater* (miyaning qattiq va yumshoq qobig‘i) kabi terminlarni kiritgan¹⁰³.

¹⁰⁰ Реформатский А.А. 2005, с. 119–122

¹⁰¹ Гринёв-Гриневич С.В. Терминоведение: учеб. пособие. – М.: Академия, 2008. – С.156.

¹⁰² Абдулхайрова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б.19.

¹⁰³ Абдулхайрова Ф.И. Ko‘rsatilgan asar. – Б.20.

Tibbiyot terminlarining o‘zlashish jarayoni murakkab hodisa sifatida qaraladi. Buning sababi, avvalo, davolash amaliyoti jarayoni bilan bog‘liq. Darhaqiqat, tibbiyot terminologiyasi keng makrotizimni tashkil qilar ekan, qotib qolgan shakl hisoblanmaydi, balki doimiy harakatda bo‘ladi. Buning sababi tibbiyot sohasining rivoji va kasalliklarning yangi turlarini paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbek tibbiyot terminologiyasi rus tili singari o‘ziga xos tizim hisoblanadi. Unga har doim ham oddiy terminlarga qo‘yiladigan talablar mos kelavermaydi. Biroq, ayni paytda, aynan tibbiyot terminologiyasi termin xususiyatlarini o‘rganish imkoniyatini beradi, chunki hozirgacha bu borada qilingan ishlarning ko‘pligiga qaramasdan, ushbu muammo o‘z yechimini topmoqda.

Tibbiy terminlarning aksariyat qismi lotin tilidan ekanligi hamda ular baynalmilal tizimni tashkil qilishi, dunyodagi barcha tib ilmi vakillarini bir-birlarini oson tushunishga vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Lotin tili zamonaviy dunyoning muhim madaniy hodisasi bo‘lib qolmoqda. Ushbu tilsiz, inson faoliyatining ko‘plab sohalarini tasavvur etib bo‘lmaydi. Bizga ma’lumki, Yevropa davlatlarining tibbiyot sohasi shakllanishi hamda rivoji boshqa mamlakatlarning tibbiy olamidanda anchagina oldinda. Tibbiyot sohasidagi barcha ilmiy adabiyotlar lotin tilida talqin etilgan va shu kungacha bu til o‘z mavqeini yo‘qotmagan.

Lotin tili qurilishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu til Hind-Yevropa tillari oilasining roman tillari bo‘limining asoschisi, boshlovchisi hisoblanib, tuzilishi jihatidan “sintetik til hisoblanadi, ya’ni bunda so‘zlarning leksik va grammatik shakllari asosan qo‘shimchalar vositasida ifoda etiladi.

Tibbiyotda lotin tili an’anaviy ravishda anatomik, klinik va farmatsevtik terminologiyada qo‘llaniladi. Lotin tilini bilish dunyoning turli mamlakatlaridagi shifokorlarga bir-birlarini oson tushunish imkonini beradi. Lotin tilini tibbiyotda qo‘llashning azaliy an’anasi butun dunyodagi shifokorlar uchun va tibbiy ta’limni birlashtirishda xizmat qiladi.

Shunday qilib, tibbiy terminologiyani meyorlashtirishning umumiy tamoyillarini belgilash va tibbiyotning turli sohalarida terminlarni shakllantirishning o‘ziga xos

usullarini tanlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish uchun tibbiy lug'atning individual sohalarini va ularda yuzaga keladigan terminologik jarayonlarning oldindan, ancha aniq, tizimli tavsifi zarur. Lotin tili lotinlashtirilgan yunon ildizlari bilan birgalikda tibbiyot uchun zarur bo'lgan yangi, qisqacha va mazmunan aniq terminlar yaratishga imkon beradi. Shuning uchun ushbu ishda o'zlashtirilgan elementlarni kuzatishga harakat qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Speranskiy V.S., Goncharov N.I. Ocherki istorii anatomii: nauchnoye izdaniye. – Volgograd: Izdatel, 2012.
2. Wijnen-Meijer, Burdick W., Alofs L. et al. Stages and transitions in medical education around the world: clarifying structures and terminology // Med. Teach. – 2013. – Vol. 35, N 4.
3. Daniyarov B.X. O'zbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati, leksikografik tadqiqi. – Samarqand, 2017.
4. Grinyov-Grinevich S.V. Terminovedeniye: ucheb. posobiye. – M.: Akademiya, 2008.
5. Abdulxairova F.I. O'zbek tilida tibbiyot atamalarining metaforik manzarasi: Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021.

TARJIMASHUNOSLIKDA LINGVISTIK MASALALAR TALQINI

Shohida ABDULLAYEVA

*O'zDJTU "Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrası"
f.f.f.d. (PhD)*

***Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimaning lingvistik nazariy muammolarini turli olimlar tomonidan talqinlari muhokama qilinadi, olimlarning bu borada mulohazalari va yondashuvlari muxokama qilinadi. Tarjimashunoslikda matnlarni taqqoslashda tarjima muhim manba bo'lib xizmat qilishi ilmiy asoslanilib, tahlil qilish tasniflari keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** tarjima, lingvistik vositalar, lingvistika, ekstralingvistika, semantik, gap, matn.*

Tarjima — murakkab va serqirra inson faoliyatidir. Garchi odatda tarjima deganda “bir tildan boshqa tilga” tarjima qilish tushinilsada aslida tarjima jarayoni o'z ichiga ko'proq masalalarni qamrab oladi. Tarjimada turli tuman madaniyatlar, shaxslar,